

Spetsifikatsiya va xizmatlar ro'yxati

“Ipak yo'lida turizm” Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini tashkil qilish, o'tkazish, ishtirokchilarni izlash va jalb qilish bo'yicha qator xizmatlarni ko'rsatish shartlari

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mamlakatimizning jozibador turistik qiyofasini yaratish, shuningdek, xorijiy turistlar oqimini jalb qilish, milliy turizm mahsulotining xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirishni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq “Ipak yo'lida turizm” Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi (*keyingi o'rinlarda – Yarmarka*) turizm sohasi mutaxassislari bilan bir qatorda, oddiy sayyohlar o'rtasida o'tkazilmoqda.

Yarmarka 2026-yil 25 - 27-noyabr kunlari Toshkent shahrida (O'zbekiston) bo'lib o'tadi.

Xizmatlarni amalga oshirishda Tashkilotchi bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish

Xizmatlarning bajarilishini nazorat qilish uchun tadbirni tashkil qiluvchi kompaniya Tashkilotchiga (yoki uning talabiga binoan uchinchi shaxslarga) xizmatlarga tegishli zarur hujjatlarni taqdim etadi va xizmatlarning bajarilishi hamda shartnoma bo'yicha qilingan xarajatlarni tekshirish uchun sharoit yaratadi.

Tashkilotchi tadbirlarni tashkil etuvchi kompaniyaga xizmatlarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha materiallarni taqdim etadi va xizmatlarning bajarilishi to'g'risida hisobot talab qilish huquqiga ega.

Bundan tashqari, tanlov bosqichida har qanday manfaatdor shaxsning yozma shaklda berilgan yoki elektron pochta orqali olingan alohida arizasiga ko'ra, tegishli ariza olingan kundan boshlab ikki ish kuni muddatida mazkur shaxsga Yarmarka Tashkilotchilari tomonidan ishlab chiqilgan ko'rgazmada ishtirok etish shartlarining elektron varianti taqdim etiladi (arizachining elektron manziliga).

Xizmatlar hajmi

Yarmarkani tashkil etish, o'tkazish, ishtirokchilarni izlash va jalb qilish xizmatlari Yarmarka Tashkilotchilari tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

Yarmarka ko'rgazma-yarmarka faoliyati sohasidagi xalqaro standartlarga mos kelishi shart. Tadbirlarni tashkil etish bo'yicha kompaniyaning barcha xizmatlari (ishlari) hajmi ikki bosqichga bo'lingan.

Birinchi bosqichda tadbirni tashkil etuvchi kompaniya tomonidan ekspozitsiya Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlash uchun ko'rgazma Konsepsiyalari, Taqvim rejalar va Badiiy konsepsiyalar loyihalari tayyorlanishi shart.

Tadbirni tashkil etuvchi kompaniya Tashkilotchiga ushbu hujjatlar loyihalarini Yarmarka ekspozitsiyasi Tashkiliy qo'mitasi bilan kelishishda amaliy yordam ko'rsatishi va zudlik bilan kerakli o'zgartirishlarni kiritishi shart.

Ikkinchi bosqich xizmatlari birinchi bosqichda tasdiqlangan hujjatlar asosida hamda ko'rgazma Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan ko'rgazmaga

tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha tadbirlarning taqvim rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tadbirni tashkil etuvchi kompaniya tomonidan quyidagi xizmatlar (ishlar) bajarilishi shart:

Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar

- Yarmarkani o‘tkazish bo‘yicha **xarajatlar smetasini** yarmarkadan oldin taqdim etish, daromadlar va xarajatlar bo‘yicha ma‘lumot beruvchi vakolatli shaxsni belgilash;

- Yarmarka konsepsiyasini ishlab chiqish;

- Yarmarka sayti va ijtimoiy tarmoqlarini yuritishda amaliy yordam ko‘rsatish;

- Yarmarkani targ‘ib qilish uchun mahalliy ommaviy axborot vositalari, blogerlar va jurnalistlarni jalb qilish;

- Yarmarkani xorijda targ‘ib qilish (O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalari orqali, xorijiy turizm ko‘rgazmalaridagi “O‘zbekiston” Milliy stendida);

- O‘zbekistonning hududiy turizm salohiyatini taqdim etishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklarini jalb qilgan holda, amaliy yordam ko‘rsatish;

- Xorijiy davlatlar turizm muassasalarini milliy stend bilan ishtirok etishga jalb qilishda amaliy yordam ko‘rsatish;

- Ishtirokchilar va tashrif buyuruvchilarni ro‘yxatga olishni ta‘minlash;

- Yarmarkani o‘tkazishda barcha xarajatlar tanlov g‘olibining o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi;

- Xalq amaliy san‘ati ustalari, hunarmandlar, folklor jamoalari va milliy ansambllar, musiqa ijodkorligi va an‘anaviy san‘at ustalarining taqdimoti o‘tkazilishini tashkillashtirish;

- xorijiy sayyohlik kompaniyalari va respublikaning turizm subyektlari vakillarini keng ko‘lamda jalb etish;

- belgilangan tartibdan har oyda qilingan ishlar bo‘yicha ma‘lumot taqdim etib borishlari zarur.

Tanlov ishtirokchilarini baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari nomi	Baholash metodikasi	Min. ball	Maks. ball
1.	Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi	Tanlov ishtirokchilarining soliq organlaridagi barqarorlik reytingi shkalasi bo‘yicha: <ul style="list-style-type: none">• 50 balldan 60 ballgacha bo‘lsa, 5 ball;• 60 balldan 70 ballgacha bo‘lsa, 10 ball;• 70 balldan yuqori bo‘lsa, 20 ball qo‘yiladi. <i>Izoh: Agar tanlov ishtirokchisining barqarorlik reytingi 50 balldan kam bo‘lsa, tanlovdan chetlatiladi.</i>	0	20
2.	Moliyaviy ko‘rsatkichlari	Tanlov ishtirokchilarining 2025-yildagi sof foydasi: <ul style="list-style-type: none">• 8 mlrd so‘mdan 12 mlrd so‘mgacha bo‘lsa, 5 ball;• 12 mlrd so‘mdan 17 mlrd so‘mgacha bo‘lsa, 10 ball;	0	15

		<ul style="list-style-type: none"> • 17 mlrd soʻmdan yuqori boʻlsa, 15 ball qoʻyiladi. <p>Izoh: Bunda, ochiq maʼlumotlar (ihamkor.uz, orginfo.uz va h.k.)dan foydalaniladi. Shu bilan birga, tegishli organlardan maʼlumotnoma taqdim etilishi mumkin.</p>		
3.	Faoliyat tajribasi	<p>Tanlov ishtirokchilarining faoliyati davomiyligi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 3 yildan 5 yilgacha boʻlsa, 5 ball; • 5 yildan 15 yilgacha boʻlsa, 10 ball; • 15 yildan 25 yilgacha boʻlsa, 15 ball qoʻyiladi. <p>Izoh: Bunda, ochiq maʼlumotlardan foydalaniladi. Shuningdek, ishtirokchilar tomonidan ham tegishli tashkilotlardan roʻyxatdan oʻtganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma taqdim etilishi mumkin.</p>	0	15
4.	Jami tushumlar boʻyicha tarmoq reytingidagi oʻrni	<p>Tanlov ishtirokchilarining 2025-yil faoliyatidagi tushumi boʻyicha tarmoq reytingidagi oʻrni:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 7 dan 10 gacha oʻrinda boʻlsa, 5 ball; • 3 dan 7 gacha oʻrinda boʻlsa, 10 ball; • 1 dan 3 gacha oʻrinda boʻlsa, 15 ball qoʻyiladi. <p>Izoh: Bunda, ochiq maʼlumotlar (ihamkor.uz, orginfo.uz va h.k.)dan foydalaniladi.</p>	0	15
5.	Ish faoliyati	<p>Tanlov ishtirokchilarining jahon miqyosida yil davomida oʻtkazgan yarmarkalari soni:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 5 tadan 15 tagacha boʻlsa, 5 ball; • 15 dan 25 tagacha boʻlsa, 10 ball; • 25 dan yuqori boʻlsa, 15 ball qoʻyiladi. <p>Izoh: Bunda, ochiq maʼlumotlar, tasdiqlangan maʼlumotlar asosida.</p>	0	15
6.	Xorijdagi faoliyati	<p>Tanlov ishtirokchilarining xorijda filiallari mavjudligi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Filial mavjud boʻlsa, 10 ball qoʻyiladi. <p>Izoh: Bunda, agar xorijda filiallari mavjud boʻlmasa, 0 ball qoʻyiladi.</p>	0	10
7.	Yarmarkani oʻtkazish boʻyicha loyiha taqdimoti	<p>Tanlov ishtirokchilari tomonidan Yarmarkani oʻtkazish boʻyicha kerakli takliflar asosida loyiha taqdimotini himoya qilish, tanlov komissiyasining muhokamasi bilan 10 ballgacha baholanadi.</p> <p>Izoh: Taqdimot qilmagan tanlov ishtirokchilariga 0 ball qoʻyiladi.</p>	0	10
Jami				100